

UZLUKSIZ TA'LIMDA GEOGRAFIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK VA PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

S.R.Shodiyev

G.f.d., (DSc). Professor

Halilova Zarina Djamalovna

Navoiy davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19562996>

Annotatsiya: Maqolada geografiya fanini o'qitishda an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning o'rni, xususan, maktab ta'limidan oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda geografik tafakkurni rivojlantirishning metodik mexanizmlari tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida loyihaviy ta'lim, AKT vositalari va keys-stadi metodlarining samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, uzluksiz ta'limdagi fanlararo bog'lanishlarning geografik tahlil ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'z: Geografiya, ta'lim, o'quvchi, talaba, bilim, ko'nikma, Kognitiv, *analiz va sintez*, ob'ektiv, sub'ektiv.

METHODOLOGICAL AND PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING GEOGRAPHICAL THINKING IN CONTINUING EDUCATION

Abstract: The article examines the role of traditional and innovative approaches in teaching geography, in particular, methodological mechanisms for developing geographical thinking at all stages from school to higher education. In the process of research, the effectiveness of project-based learning, ICT tools and case study methods is substantiated. The importance of interdisciplinary connections in continuing education in the formation of geographical analysis skills is also revealed.

Keywords: Geography, education, pupil, student, knowledge, skills, Cognitive, analysis and synthesis, objective, subjective.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В статье рассматривается роль традиционных и инновационных подходов в преподавании географии, в частности, методологических механизмов развития географического мышления на всех этапах обучения, от школы до высшего образования. В процессе исследования обосновывается эффективность проектного обучения, ИКТ-инструментов и методов анализа конкретных случаев. Также раскрывается важность междисциплинарных связей в непрерывном образовании для формирования навыков географического анализа.

Ключевые слова: География, образование, ученик, студент, знания, навыки, когнитивный, анализ и синтез, объективный, субъективный.

Geografiya ta'limi uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning ajralmas va uzviy bog'langan tarkibiy qismi sifatida mazkur ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan umumiy maqsadlarga muvofiq barkamol o'quvchi shaxsini, yetuk mutaxassisni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, geografiya ta'limi o'quvchi va talabalarda yer to'g'risidagi ilmiy dunyo qarashlarni shakllantiradi, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni

tarkib toptiradi, dunyo davlatlari va turli regionlarda jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi, geografik ob'ekt, jarayon va hodisalar haqidagi bilim va tushunchalar bilan qurollantiradi, umuminsoniy madaniyatni tarkibiy qismi bo'lgan geografik madaniyatni tarbiyalaydi.

Geografiya ta'limi mazmuni o'z ichiga turli tarkibiy qismlarni oladi. Ular geosferalarning o'rganilishi, geografik jarayonlar va hodisalar, hamda ularning inson faoliyatiga ta'siri haqida bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi. Geografiya ta'limi mazmunining tarkibiy qismlariga quyidagi asosiy elementlar kiradi:

Bu tarkibiy qismlar birgalikda geografiyaning nafaqat tabiatni, balki inson faoliyatini ham o'rganish va unga ta'sir ko'rsatishni tushunishga imkon beradi.

1-jadval

Geografiya ta'limining takibiy qismlari

№	Yo'nalish nomi	Asosiy tarkibiy qismlari va mavzular	O'rganish obyekti va maqsadlari
1	Tabiiy geografiya	<ul style="list-style-type: none"> • Yerning shakli va o'lchamlari (Geodeziya, geofizika) • Iqlim va ob-havo o'zgarishlari • Tuproq, suv va mineral resurslar 	Tabiatning fizik xususiyatlari, tabiiy boyliklarning shakllanishi va tarqalish qonuniyatlarini o'rganish.
2	Inson va jamiyat geografiyasi	<ul style="list-style-type: none"> • Aholi demografiyasi va migratsiya • Iqtisodiy geografiya (Sanoat, qishloq xo'jaligi) • Urbanizatsiya (Shahar va qishloq tuzilishi) 	Jamiyatning hududiy tashkil etilishi, aholi joylashuvi va iqtisodiy faoliyatning tabiat bilan aloqasi.
3	Kartografiya	<ul style="list-style-type: none"> • Xarita turlari, shkala va koordinatalar <ul style="list-style-type: none"> • Topografik xususiyatlar • Geografik axborot tizimlari (GAT) 	Geografik ma'lumotlarni vizuallashtirish, raqamli xaritalar yaratish va ma'lumotlarni boshqarish.

№	Yo'nalish nomi	Asosiy tarkibiy qismlari va mavzular	O'rganish obyekti va maqsadlari
4	Geografik hududlarni tahlil qilish	<ul style="list-style-type: none"> • Hududiy (regional) tadqiqotlar • Global ekologik muammolar • Tabiiy ofatlar va resurslar taqsimoti 	Aniq hududlarning o'ziga xosligini o'rganish va global darajadagi muammolarga yechim izlash.
5	Geografik ta'lim metodikasi	<ul style="list-style-type: none"> • O'qitishning interaktiv metodlari • Amaliy mashg'ulotlar tashkil etish • Zamonaviy ta'lim texnologiyalari (Multimedia) 	Geografiya fanini samarali o'qitish, o'quvchilarga bilim berishning zamonaviy usullarini qo'llash.

Jadval mualliflar tomonidan ishlab chiqildi

Geografiya darslarida o'quvchilarni to'laqonli o'quv – bilish jarayonining sub'ektiga aylantirish yo'llarini tahlil qiladigan bo'lsak, o'quvchi va talabani intellektual va ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash bilan uzviy bog'langan uzluksiz ta'lim tizimi orqali barkamol shaxsni shakllantirish nazarda tutilgan. Uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi mazkur vazifalarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga, samaradorlik esa o'z navbatida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va faollashtirishga bog'liq.

Bilish – moddiy olamning inson ongida in'ikos etish jarayonidir. Ya'ni:

- Ob'ektiv olam bizning sezgi va tasavvurimizga bog'liq bo'lmagan holda undan tashqarida mavjud.
- Ob'ektiv olam inson sezgi va tasavvurlarining manbai;
- Inson dunyo va uning rivojlanish qonuniyatlarini bilishi mumkin.
- Inson sezgi, tasavvur va tushunchalarida o'ziga bog'liq bo'lmagan tashqi olam mazmunini in'ikos ettiradi.

Geografiya ta'limi jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida geografik qobiqning qonuniyatlari, hodisa va voqealarning mohiyati, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlari, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir.

O'qituvchi geografiya ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, o'qitishdan ko'zda tutilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish uchun ularni boshqaradi, nazorat qiladi va baholash orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi.

O'quvchilar bilish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga alohida e'tibor berish kerak. Bilish faoliyatini ob'ekti – o'qituvchi bo'lsa, sub'ekti o'quvchi sanaladi. Shu bois ta'lim markazida o'quvchi shaxsi, ongi ham o'rganilayotgan olmaga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlikka: o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilarga munosabati yotadi. Bu masalaga barcha davrlarda birdek ahamiyat berib kelingan. Ayniqsa, Uyg'onish davri Sharq mutafakkarlari ta'lim jarayonini, o'qitish, ta'lim berishda o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabat masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Abu Ali ibn Sino ta'lim jarayoni, bilim berish haqida gapirar ekan, unda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- o'qitishning jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Abu Rayhon Beruniy esa o'quvchilarga bilim berishda:

- o'quvchilarni zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik; - yangi mavzuni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish kerakligini

uqtiradi.

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, ta'lim jarayoni o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyatini va o'quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Biz bu fikrlarni tahlil qilib, ta'lim jarayoni tarbiya bilan, bilim, ko'nikma va malakalarni bir-biri bilan ajratilgan holda shakllantirishga mo'ljallangan o'quv faoliyatini tashkil etish bugungi kun talabiga javob bermasligi, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etganda, ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit, bir tizim xolatida, bilim, ko'nikma va malakalarni bir-biriga uzviy ravishda shakllantirish lozim, degan xulosaga keldik.

XX asrning taxminan 30 yillaridan buyon ta'lim-tarbiya jarayonida hukumronlik qilayotgan an'anaviy ta'lim, xususan tushuntirish (og'zaki bayon) metodlari o'quvchilarni yalpi o'qitish va o'quvchilarning bilish faoliyatining passiv tinglovchisi sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. O'qitish ishlarini tashkil etishda o'rta saviyali o'quvchi mo'ljalga olinadi, o'quvchilarning mustaqilligi e'tibordan chetda qoladi, o'quv faoliyati o'qituvchi tomonidan boshqariladi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etganda, ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit, bir tizim holatida, bilim, ko'nikma va malakalarni bir - biri bilan uzviy ravishda shakllantirish lozimligini qayd etish zarur.

Geografiya darslarida o'quvchilarni to'laqonli o'quv-bilish jarayonining sub'ektiga aylantirishning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Aktiv ishtirok etishga rag'batlantirish: Geografiya darslarida o'quvchilarni faollikka jalb qilish, ularning darsda to'liq ishtirok etishlarini ta'minlash zarur. Buning uchun turli interaktiv usullarni qo'llash maqsadga muvofiq. Interaktiv usullar quydagilar:

Guruhlarda ishlash: O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, muayyan masalalarni yechishga yo'naltirish, birgalikda muhokama qilish orqali ular o'z fikrlarini ifodalashga, boshqalarning fikrini tinglashga, o'rganishga rag'batlantiriladi.

Muammolarni hal qilish: O'quvchilarga murakkab geografik muammolarni taqdim etib, ular mustaqil ravishda echimini izlashga undash. Masalan, real hayotdagi ekologik, ijtimoiy yoki iqtisodiy muammolarni muhokama qilish.

2. Kognitiv faoliyatni rivojlantirish: O'quvchilarning bilim olish faoliyatini kengaytirish uchun ular kognitiv jarayonlarni boshqarishga o'rgatilishi kerak. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Analiz va sintez: O'quvchilarga geografik ma'lumotlarni tahlil qilish, turli manbalardan ma'lumot yig'ish va ularni umumlashtirishni o'rgatish. Masalan, statistik ma'lumotlar asosida harajatlar va resurslarni taqqoslash.

Izlanish: O'quvchilarga mustaqil izlanish olib borish imkoniyatini yaratish, ilmiy maqolalar o'qish, taqdimotlar tayyorlash, tadqiqot ishlari olib borish.

3. Bilimlarni hayotga tatbiq etish

Geografiya darslarida o'quvchilarga o'zlari o'rgangan bilimlarni kundalik hayotda qo'llash imkoniyatini yaratish muhimdir. Bu o'z ichiga quyidagilarni oladi:

Kundalik hayotga aloqador masalalarni muhokama qilish: Geografik bilimlarni real hayotdagi masalalar bilan bog'lash (masalan, iqlim o'zgarishi, resurslar taqsimoti, global ijtimoiy-siyosiy jarayonlar).

Ekskursiyalar va sayohat darslari: Darslarni amaliyot bilan boyitish, o'quvchilarga turli hududlarga ekskursiyalar uyushtirish yoki virtual ekskursiyalarni tashkil etish.

4. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

O'quvchilarni ijodiy fikrlashga undash, ularni tanqidiy yondoshuvni rivojlantirishga yo'naltirish zarur. Buning uchun kreativ vazifalar berish hamda ularni baholash va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

Kreativ vazifalar: O'quvchilarga innovatsion geografik loyihalarni amalga oshirishni taklif etish, masalan, o'zlarining ideal shaharlari yoki ekologik tizimlarini yaratish.

Baholash va tahlil qilish: Geografik muammolarni tahlil qilishda o'quvchilardan turli nuqtai nazardan yondoshuvlarni o'rganish va baholash talab etiladi.

5. individual va jamoaviy o'rganish

Geografiya darslarini individual va jamoaviy o'rganishning birlashgan tizimida olib borish:

Shaxsiy rivojlanish: O'quvchi va talabalarga o'zining o'qish jarayonidagi qiziqishlarini va kuchli tomonlarini aniqlashda yordam berish.

Jamoaviy o'qish: Jamoaviy fikrlash va muhokama orqali o'quvchilar va talabalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish.

6. Texnologiyalarni qo'llash: Zamonaviy texnologiyalar yordamida geografiya o'quvchilarini yanada faolroq jalb etish mumkin. Masalan:

Geoinformatsion tizimlar (GIS): O'quvchilarga geografik ma'lumotlar bazasini tahlil qilish va xatoliklarni aniqlash uchun GIS tizimlarini o'rgatish.

Virtual kartalar va modellar: O'quvchilarga global va mahalliy jarayonlarni ko'rsatadigan interaktiv xaritalar va 3D modellar orqali o'qitish.

Xulosa qilib aytganda geografiya darslarida o'quvchilarni o'z faoliyatining sub'ektiga aylantirish, ularni bilimni faqat qabul qiluvchi emas, balki o'z bilimlarini yaratish va tatbiq etish orqali rivojlanishga undashni ta'minlaydi. Bu jarayon o'quvchilarni yanada mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlaydigan shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
3. Vahobov H., Alimqulov N., Sultonova N. Geografiya o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Nodirabegim", 2021.
4. Qurboniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi (O'quv qo'llanma). – Xorazm, 2013.
5. Musaev P., Musayev A. Geografiya o'qitishda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2018.
6. Rafiqov A. Geografiya: amaliy mashg'ulotlar va darsdan tashqari ishlar. – Toshkent: "O'qituvchi", 2015.
7. Baranskiy N. N. Metodika prepodavaniya geografii. – M.: Prosveteniye, 1990. (Geografik tafakkurning klassik asosi).
8. Gerasimova T. P. Obuchenie geografii v sredney shkole. – M.: Pedagogika, 2005.
9. Lambert D., Morgan A. Geography and Education: Perspective on a Developing Relationship. – London: Routledge, 2010.